

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SATTAROV KAMOLIDDIN FAZLIDDIN O‘G‘LI**

**BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA  
TAYYORLASHDA IJODIY VA KREATIV O‘QUV TOPSHIRIQLARIDAN  
FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
(“O‘zbekiston tarixi” fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Pedagogical Sciences**

**Sattarov Kamoliddin Fazliddin o'g'li**

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish ("O'zbekiston tarixi" fani misolida) ..... 3

**Саттаров Камолиддин Фазлиддин угли**

Совершенствование методики использования творческих и креативных учебных заданий в подготовке будущих учителей истории к профессиональной деятельности (на примере предмета "История Узбекистана") ..... 25

**Sattarov Kamoliddin Fazliddin ugli**

Improving the methodology of using creative and innovative learning tasks in preparing future history teachers for professional activity (on the Example of the Subject "History of Uzbekistan")..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 56

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SATTAROV KAMOLIDDIN FAZLIDDIN O‘G‘LI**

**BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA  
TAYYORLASHDA IJODIY VA KREATIV O‘QUV TOPSHIRIQLARIDAN  
FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(“O‘zbekiston tarixi” fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ped6543 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namspi.uz](http://www.namspi.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Boymirzayev Xurshidjon Karimjonovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjanovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi falsafa fanlari doktori(PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 8 » 11 soat 9<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: +998 69 211 11 69 (faks: +998 69 211 11 69) e-mail: [info@namspi.uz](mailto:info@namspi.uz)).


Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (274 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.:(+998 69 211 11 69).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 24 » 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 24 » 10 daqi, 14 - raqamli reyestr bayonnomasi)

  
**M.R. Qodirxonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, kimyo fanlari doktori (DSc), dotsent

  
**S.X. Mutalov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

  
**M.A. Asqarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tadqiqot markazlari va oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish maqsadi, faqat "faktlarni yodlash"dan iborat emas, aksincha, talabalarda muammolarni noan'anaviy yecha olish, yangi g'oyalar yaratish va ularni baholash qobiliyati, ya'ni kreativ fikrlashni shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi. 2022-yilgi PISA baholash tizimi tarixda birinchi marta kreativ fikrlashni alohida yo'nalish sifatida o'lchadi va natijalar ko'pchilik tizimlarda ushbu kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha maqsadli metodik yondashuv zarurligini ko'rsatdi. O'qitish jarayonida talabaning g'oyalar yaratishi, ularning mosligi va yangiligini baholash, shuningdek, g'oyalarni takomillashtirishga vaqt va sharoit berish bilan bog'liq pedagogik amaliyotlar yuqori natija berishi ta'kidlanadi. Bu esa "O'zbekiston tarixi" fanida manba tahlili, tarixiy bahs, rolli simulyatsiyalar, ijtimoiy loyiha kabi kreativ topshiriqlarning aniq rubrikalar bilan qo'llanishini taqozo etmoqda.

Dunyoning ilg'or Milliy fanlar akademiyalari qo'mitalaridan biri "How People Learn" hisobotida ta'limni chuqur tushunish va turli vaziyatlarga moslashtirish uchun fanning amaldagi faoliyatlariga: savol qo'yish, dalil to'plash, bahs va xulosa qilish kabi amaliy-tarkibiy faoliyatlarga tayanish kerakligini ko'rsatadi<sup>1</sup>. Ushbu manba tarixda "ism-sanalarni, tarixiy fakt hamda voqea-hodisalarni yodlash" emas, balki dalillar bilan ishlash, tarixiy tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va bahs madaniyatini shakllantirish ustuvor ekanini alohida ta'kidlaydi. Yuqoridagi kompetensiyalar zamonaviy tarix fani o'qituvchisida jamlanishi uning ilmiy va pedagogik salohiyatini namoyon etadi. Bu esa kreativ vazifalarning ta'limiy qimmatini asoslab beradi. Ya'ni tarixdagi kreativ va ijodiy topshiriqlar tarixiy manbalar, dalillar mazmuniga o'zgartirish kiritmay natija bermoqda.

O'zbekiston ilm-fan muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar bo'lajak tarix o'qituvchisini tayyorlashda ilmiy-ijodiy faoliyat va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan metodik tayyorgarlikning o'rni hal qiluvchi ekanini ko'rsatadi. Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimi kompetentlikka asoslangan mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan mutaxassisni tayyorlashni ustuvor vazifa deb biladi. Bu talab, ayniqsa, "O'zbekiston tarixi" fani misolida tarix ta'limida yangicha didaktik yondashuvlar, ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini tizimli joriy etishni taqozo qiladi. Oliy ta'limda o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish zarurati ham global tamoyillar, ham milliy islohotlar bilan asoslanadi, monografik tadqiqotlarda kreativ kompetensiya ta'lim muhitini demokratlashtirish va "ijodiy yondashuvga asoslangan ta'lim"ni kuchaytirish orqali shakllanishi tasdiqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-

---

<sup>1</sup> John D. Bransford; Ann L. Brown; Rodney R. Cocking (Eds.). How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School (Expanded Edition). Washington, DC: National Academy Press, 2000, 145, 251–252-6.

son, 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2025-yil 5-maydagi “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-76-son Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son Qarori, O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 83-son Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning ishlanganlik darajasi.** Respublikamizda tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o‘quv topshiriqlaridan samarali foydalanish masalasi zamonaviy pedagogikada keng o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Kreativ pedagogikaning nazariy-amaliy asoslari bo‘yicha M.Usmonboeva, A.To‘rayev, M.L.Boltayeva, M.T.Jumaniyozova asarlarida kreativ vazifalar o‘qituvchining innovatsion faoliyatini barqaror qo‘llab-quvvatlashini nazariy va amaliy jihatdan asoslaganlar<sup>2</sup>. Tarix o‘qitish metodikasida kreativ va ijodiy yondashuvning zarurati A. Sa‘diyev, G.Fuzaylova, M.Xasanova kabi metodistlarning tadqiqot ishlarida ta‘kidlanadi. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi nuqtayi nazaridan ijodiy topshiriqlarning loyihalashtirilishi O‘.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva tomonidan ta‘lim jarayonining maqsadi, mazmuni, usul va vosita, natijalar ketma-ketligida tizimli yondashuv sifatida izohlanadi<sup>3</sup>. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish sohasida N.A.Muslimov, Q.M.Abdullayeva, O.A.Qo‘ysinov, N.N.Azizxo‘jayeva, N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva, D.M.Fayzullayeva pedagogik texnologiya va mahorat uyg‘unligini talabaga yo‘naltirilgan, ijodiy-amaliy natijalarga erishuvchi ta‘lim sharti deb hisoblaydi<sup>4</sup>. JDFU professori R.B. Yarmatov tarix ta‘limi yo‘nalishidagi bakalavr bitiruvchisida ilmiy bilish shakl va metodlarini, axborot texnologiyalaridan

<sup>2</sup> Usmonboeva M., Turaev A. Kreativ pedagogika asoslari: o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: TDPU, 2016. 3–6 – b. Renaissance Education. Boltaeva M.L. Kreativ fikrlash: o‘quv-uslubiy majmua. Namangan: NamDU, 2023. 3–6. Jumaniyozova M. T. O‘qituvchining kasbiy kreativligini takomillashtirish texnologiyasi: monografiya. Samarqand: SamDU, 2023. 3–5-6.

<sup>3</sup> Tolipov O. Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan, 2006. 4–5; 205–206-betlar. (ISBN 5-648-03428-5). Ishmuhamedov P. J., Yuldashov M. A. Ta‘lim va tarbiya innoatsion pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Nihol, 2013. 3–5; 277-betlar. (ISBN 978-9943-23-075-0).

<sup>4</sup> Muslimov N. A., Abdullaeva Q. M., Kuyisov O. A., Fayzova N. S. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. 2–7; 94-betlar. (ISBN 978-9943-10-954-4). Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston o‘quvchilari uyushmasi «Adabiyat jamg‘armasi» nashriyoti, 2006. 45–47-b. Avliyaqulov N. X., Musaeva N. N. Pedagogik texnologiya. Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. 18–20-b. Golits L. V., Fayzullaeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Iktisodiyot, 2011. 2–5-bet.

foydalanish ko'nikmalarini egallash, tarix fanining jamiyat ravnaqiga daxldor vazifalarini anglash kabi talablar belgilanganini ta'kidlaydi.<sup>5</sup>

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi(MDH) olimlaridan N.V.Maslov, V.P.Bespalko, G.K.Selevko va A.V.Xutorskoylar ta'lim texnologiyalarining tasnifida loyiha, o'yin, muammoli va tadqiqotga yo'naltirilgan usullarni alohida blok sifatida ajratadi<sup>6</sup>. Belarus va Rossiya olimlari Lev Vigotskiy, T.N.Glazirina, M.V.Korotkova, M.T.Studenikin; Ye.E.Vyazemskiy, O.Yu.Strelova, S.N.Rojkova tarix darslarida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini rejali yo'lga qo'yishni asosiy vosita deb ko'rsatadilar. Tarix darslarida tasvir va statistik manbalar bilan ijodiy ishlashni tizimlashtiradi. Bunday yondashuvlar o'quv vazifalarini darajalab berish, topshiriqlarni guruh shaklida bajarish va formatlar xilma-xilligini ta'minlashga xizmat qiladi<sup>7</sup>.

Xorijlik olimlardan Samuel Vaynberg, Piter Li, Rozalin Eshbi, Robert B.Beyn tadqiqotlarida talabalarda tarixiy tushunish bosqichma-bosqich kengayadi va shu bosqichlarga mos ravishda topshiriqlar murakkablashib borishi haqida fikr yuritilgan<sup>8</sup>. Jerom Bruner, Grant Uiggins, Jey MakTay tarixni faqat faktlar yig'indisi sifatida emas, balki izchil hikoya sifatida o'rgatish kerakligi, shunda o'quvchilar tarixiy jarayonlarni chuqurroq tushunishi hamda dars jarayoni mukammal holatga kelishi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan<sup>9</sup>. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan Ellis Torranse, Li Shulman, Pol Blek, Dilan Viliam, Mark Ranko va Garret Jeger pedagogik bilim tushunchasini ilgari surib, faqat tarixiy mazmuni bilish yetarli emasligini, balki uni o'quv topshiriqlariga moslab qanday "qo'llash"ni biladigan o'qituvchi tayyorlash zarurligini asoslaydi<sup>10</sup>.

<sup>5</sup> Ярмагов Рахимбой Бахрамович. Бўлажак тарих ўқитувчиларининг ўқув-илмий-тадқиқот ишларини такомиллаштириш: монография. Тошкент: TURON-IQBOL, 2018, 3-б.

<sup>6</sup> Николай Васильевич Маслов. "Основы русской педагогики: Православное воспитание как основа русской педагогики" Москва, Россия: Самшит-Издат 2006; В.П. Беспалко. Слагаемые педагогической технологии. "Педагогика", Москва: 1989. Г.К. Селевко. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. Москва."Народное образование": 1998. А.В. Хуторской. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. ", Москва: 2013.

<sup>7</sup> Мирза Ибрагимович Махмутов. Методы проблемно-развивающего обучения в средних профтехучилищах: Методические рекомендации. Москва: АПН СССР НИИ профтехпедагогики, 1983. – сах. 2–3 (муаммоли савол ва "ўқув тадқиқот характеридаги" топшириқлар хақида). РИПО. Татьяна Николаевна Глазырина. Методика преподавания истории: учебно-методический комплекс. Новополюк: Полоцкий гос. университет (ПГУ), 2011. – сах. 84–86 (мустақил иш турлари: репродуктив, реконструктив, творческие работы).

elib.psu.by. Марина В. Короткова; Михаил Тимофеевич Студеникин. Методика обучения истории в схемах, таблицах, описаниях: практическое пособие для учителей. Москва: Владос, 2000. – сах. 2–3 (ижодий-амалиётий йўналиш), 131–135 (дарс типларини лойихалаш). pozdnyakova.ucoz.ru Евгений Евгеньевич Вяземский; Ольга Юрьевна Стрелова. Методика преподавания истории в школе: практическое пособие для учителей. Москва: ВЛАДОС, 1999 (2001). – сах. 26–45; 89–106 (замонавий технологиялар ва амалий топшириқлар). library.altspu.ru. ntspi.ru Андрей Викторович Хуторской. «Ключевые компетенции и образовательные стандарты». Народное образование, 2003, № 2, сах. 58–64 (ижодий/эвристик фаолиятни таълим натижаси сифатида). eidos.ru Григорий Константинович Селевко. «Классификация образовательных технологий». Высшее образование в России, 2006, № 4, сах. 87–92 (лойиха, ўйин, муаммоли, тадқиқотга йўналтирилган технологиялар таснифи). Шунингдек қаранг: Современные образовательные технологии. Москва: Народное образование, 1998. nsmu.rumsu.by Виталий Петрович Беспалко. Слагаемые Педагогической технологии. Москва: Педагогика, 1989. – сах. 5–6 (технология – натижага қаратилган тизим), 52 (фаолият типлари ва стандартлаштириш зарурати). forumstatic.ru С.Н. Рожкова. Самостоятельная работа учащихся на уроках истории (лекция материаллари). Гомель: Гомель давлат университети номи билан Ф. Скорины, 2021. – сах. 1–2; 5 (тасвирий ва статистик манбалар билан ижодий ишлаш мисоллари).

<sup>8</sup> Peter Lee; Rosalyn Ashby. "Progression in Historical Understanding among Students Ages 7–14," in: Peter N. Stearns; Peter Seixas; Sam Wineburg (eds.), Knowing, Teaching, and Learning History: National and International Perspectives. New York: New York University Press, 2000, 199–222.

<sup>9</sup> Jerome Bruner. Actual Minds, Possible Worlds. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986, 11-43 ("Two Modes of Thought"). Матн учун қаранг: 11–22. Lev S. Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978, 79–91 ("Interaction between Learning and Development") 84-90.

<sup>10</sup> Ellis Torranse. "Guiding Creative Talent" New Jersey. Prentice-Hall, 1964. Lee S. Shulman. "Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching," Educational Researcher, 15(2), 1986, 4–14. Paul Black; Dylan Wiliam. "Inside the Black Box:

Xorijiy tadqiqotlar ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini tarixiy tafakkur evristikalari, avtentik ijro, ilmiy-tadqiqotcha yondashuv, formativ baholash va kreativlikning standart mezonlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Biroq ushbu nazariy-amaliy asoslarni aynan "O'zbekiston tarixi" kursi mazmuniga, mahalliy manbalarga (arxiv hujjatlari, xaritalar, matbuot, og'zaki tarix) va ichki ta'lim tizimi shartlariga moslashtirish, shuningdek, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini ishonchli mezonlar asosida baholash tartibini ishlab chiqish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Tadqiqot ana shu lokallashtirish va baholash bo'shliqlarini to'ldirishni maqsad qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Ushbu tadqiqot Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq B.M-24 "Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyada fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari" mavzusi asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarining pedagogik mohiyatini ochib berish, konseptual-kategorial apparatni aniqlash va kompetentlikka asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan ularni bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalar modeli bilan uyg'unlashtirish;

"O'zbekiston tarixi" fani kontekstida ijodiy va kreativ topshiriqlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning struktura-funksional modelini ishlab chiqish, uning samaradorligini ta'minlovchi didaktik shart-sharoitlar va tamoyillar majmuini asoslash;

kognitiv darajalar bo'yicha tasniflangan ijodiy topshiriqlar bankini konstruktiv tarzda loyihalash, ularni qo'llash texnologiyasi hamda baholash-dagnostika vositalarini ishlab chiqish;

ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasini pedagogik tajriba-sinovda aprotatsiya qilish, natijalarni psixometrik va matematik statistik usullar orqali tahlil etish va xulosalar asosida metodik tavsiyalarni takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini qo'llashga oid pedagogik jarayonlar olingan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat universiteti, Guliston davlat universiteti va Namangan davlat pedagogika institutining 414 nafar talabalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlovchi ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasi tashkil etadi.

---

Raising Standards Through Classroom Assessment," Phi Delta Kappan, 80 (2), 1998, 139–148. Mark A. Runco; Garrett J. Jaeger. "The Standard Definition of Creativity," Creativity Research Journal, 24 (1), 2012, 92–96.

**Tadqiqotning usullari** pedagogika, psixologiya, metodika hamda tarix ta'limiga oid adabiyotlarni o'rganish, kontent-tahlil, test; anketa, suhbat, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, Student matematik-statistik metodi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tarix fanini o'qitishdagi "ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlari" tushunchasining nazariy-metodologik mohiyati kompetentlikka asoslangan yondashuvning ilmiy-nazariy kategoriyalar majmuini didaktik loyihalash, bo'lajak tarix o'qituvchisining tarixiy voqelikka asoslangan tafakkurini tarixiylik prinsipi ko'magida prognozlashning ijtimoiy-pedagogik omillar bilan muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ topshiriqlardan foydalanish modeli "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishning metodik strukturasi produktiv barqarorligini ta'minlovchi innovatsion xarakterdagi mualliflik ishlanmalarini tarixiy qiyoslashning empirik komponentlariga bog'liqligini asoslash hisobiga takomillashtirilgan;

bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun kognitiv darajalar bo'yicha tasniflangan ijodiy topshiriqlar majmui, pedagogik jarayonlarda talabalarning tarixiy bilimlarni ongli tasavvurda interpretatsiya qilish orqali tarixiy jarayon va voqealarni diaxron va sinxron kontekstda refleksiv baholash orqali erkin, zaruriy va majburiy tarzda darajalash asosida takomillashtirildi;

ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasining samaradorligi pedagogik eksperiment va psixometrik yondashuv asosida kompleks tahlil qilishda talabalarning individual va guruhli ijodiy faoliyat imkoniyatlari tarixiy dalillarni tanlash hisobiga tarixiy kategoriyalarni izohlash va mavzuga oid ma'lumotlarni sintezlash, "sabab-oqibat", "induksiya-deduksiya" tamoyillariga ko'ra baholash orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini qo'llash kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodika bo'lajak tarix o'qituvchilarining "O'zbekiston tarixi" fanini o'rganishida nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi, mustaqil fikrlash, manbalarni tahlil qilish va tarixiy voqealarni zamonaviy tafakkur asosida baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida interfaol va ijodiy topshiriqlar majmuasidan foydalanish orqali talabalarning bilish faoliyati faollashadi, ya'ni ular tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki tarixiy jarayonlarni izchil tahlil etuvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi subyektga aylanadi.

Talabalarda tarixiy manbalar bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanadi. Kreativ topshiriqlar, jumladan, tarixiy hujjatlar, xaritalar, arxiv materiallari asosida amalga oshirilgan tahlillar talabalarning manbalarni solishtirish, qiyosiy tahlil qilish va interpretatsiya qilish malakasini oshiradi. Amaliyot jarayonida pedagogik innovatsiyalar joriy etiladi. Tarixiy voqealarni vizualizatsiya qilish, xronologik platformalar va raqamli arxivlardan foydalanish talabalarning tarixiy tafakkurini chuqurlashtirishga yordam bersh orqali ular tarixiy voqelikni kompleks anglash va turli nazariyalarni solishtirib baholash imkoniga ega bo'ladilar. Metodika kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalarda ijodiy yondashuv, mulohaza qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanib, ularni

kelgusidagi o'qituvchilik faoliyatida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llay oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga sharoit yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda o'rganilayotgan ilmiy-pedagogik muammoning metodologik, konseptual, kognitiv-tahliliy hamda empirik-metodik asoslarining tizimli tahlil qilingani; OTMda tarix fanlarini o'qitishda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanishga oid maxsus metodikaning ta'lim amaliyotiga tatbiqini ta'minlovchi pedagogik tajribaning ko'p bosqichga asoslangani; o'zgartiruvchi tajriba davrida ega bo'lingan ko'rsatkichlar bilan tasdiqlovchi tajribaning miqdoriy natijalari o'rtasida farqning 13,0 foizga tengligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining tadqiq qilinayotgan obyekt xususiyatlariga to'la mos kelishi, ishda bayon qilingan nazariy ma'lumotlarning pedagogika, psixologiya, metodika va tarix ta'limi yo'nalishlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning g'oyalari bilan asoslangani, Styudent metodi yordamida respondent-talabalar tomonidan qayd qilingan empirik ko'rsatkichlar haqqoniyligining tasdiqlangani; yakuniy natijalar asosli ekanligi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy natijalari pedagogika nazariyasida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini yangi ilmiy asoslar bilan boyitadi. Ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanishning metodik modeli ta'lim nazariyasida innovatsion yondashuv sifatida shakllanadi va u ta'lim jarayonida tarixiy bilimlarni faqat qayta takrorlash emas, balki tahlil, interpretatsiya va ijodiy yondashuv asosida o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa pedagogikda talabalarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy metodik tavsiyalar kreativ pedagogika va kompetensiyaga asoslangan ta'lim konsepsiyalarini ilmiy jihatdan boyitadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari tarix fanini o'qitish jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlari bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur metodika ta'lim jarayonida faol o'qitish usullarini joriy qilish, talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yechim topish va tarixiy voqealarga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, "O'zbekiston tarixi" fanini zamonaviy talablarga mos holda o'qitish va bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini yuqori bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish tadqiqoti natijasida:

tarix fanini o'qitishdagi "ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlari" tushunchasining nazariy-metodologik mohiyati kompetentlikka asoslangan yondashuvning ilmiy-nazariy kategoriyalar majmuini didaktik loyihalash, bo'lajak tarix o'qituvchisining tarixiy voqelikka asoslangan tafakkurini tarixiylik prinsipi ko'magida prognozlashning ijtimoiy-pedagogik omillar bilan muvofiqlashtirishga oid taklif va tavsiyalar "60110100 - Pedagogika" ta'lim yo'nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari

markazining 2025-yil 9-aprelda 02/01-01-120-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlari" uchun kompetentlikka asoslangan yondashuv, ilmiy-nazariy kategoriyalar majmui va bo'lajak tarix o'qituvchisining tarixiy voqelikka asoslangan tafakkurini tarixiylik prinsipi ko'magida prognozlashning ijtimoiy-pedagogik omillar bilan muvofiqlashtirilgan.

bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ topshiriqlardan foydalanish modeli "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishning metodik strukturasi produktiv barqarorligini ta'minlovchi innovatsion xarakterdagi mualliflik ishlanmalarini tarixiy qiyoslashning empirik komponentlariga bog'liqligini asoslashga doir tavsiyalar va amaliy takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-542-sonli "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediali kompleksni yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-martdagi 04/11-4175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "O'zbekiston tarixi" darslarida foydalaniladigan ijodiy topshiriqlarni integratsiya qiluvchi model o'qitishning metodik strukturasi produktiv barqarorligini ta'minlovchi innovatsion xarakterdagi mualliflik ishlanmalarini tarixiy qiyoslashning empirik komponentlariga bog'liqligini asoslangan;

bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun kognitiv darajalar bo'yicha tasniflangan ijodiy topshiriqlar majmui, pedagogik jarayonlarda talabalarning tarixiy bilimlarni ongli tasavvurda interpretatsiya qilish orqali tarixiy jarayon va voqeliklarni diaxron va sinxron kontekstda refleksiv baholash orqali erkin, zaruriy va majburiy tarzda darajalash asosida takomillashtirish, ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasining samaradorligi pedagogik eksperiment va psixometrik yondashuv asosida kompleks tahlil qilishda talabalarning individual va guruhli ijodiy faoliyat imkoniyatlari tarixiy dalillarni tanlash hisobiga tarixiy kategoriyalarni izohlash va mavzuga oid ma'lumotlarni sintezlash, "sabab-oqibat", "induksiya-deduksiya" tamoyillariga ko'ra baholash orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-542-sonli "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediali kompleksni yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanildi (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-martdagi 04/11-4175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kognitiv darajalar bo'yicha tasniflangan ijodiy topshiriqlar majmui, pedagogik jarayonlarda talabalarning tarixiy bilimlarni ongli tasavvurda interpretatsiya qilish orqali tarixiy jarayon va voqeliklarni diaxron va sinxron kontekstda refleksiv baholash orqali erkin, zaruriy va majburiy tarzda darajalangan hamda pedagogik eksperiment va psixometrik yondashuv asosida kompleks tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusiga oid jami 17 ta ilmiy ish e’lon qilingan bo’lib, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, 8 paragraf, 139 sahifa, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti yoritilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlardan foydalanish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni tarixiy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga, murakkab tarixiy materiallarni mustaqil talqin etishga va yangi yechimlar topishga yo‘naltirish asosiy pedagogik vazifaga aylandi. Bu o‘zgarish ta’limning mazmuniy standarti bilan cheklanib qolmay, o‘quv jarayonining tuzilishi, o‘quv topshiriqlari xususiyati va ularni bajarishdagi faollik me‘yorlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Pedagog-tarixchi nuqtai nazaridan qaralganda, ta’limda ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlarini metodik jihatdan takomillashtirish masalasi nafaqat didaktik samaradorlikni oshirish, balki tarixiy tafakkurni qo‘llab-quvvatlovchi kompetensiyalar majmuini tizimli tarzda shakllantirish uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu ma’noda mazkur bobda ijodiy va kreativ topshiriqlarning pedagogik mohiyati ochib beriladi, ularning didaktik vazifalari va tasnif tizimi nazariy asoslarda aniqlanadi, komponentli kompetentlik yondashuvi doirasida ijodiy fikrlash hamda tarixiy tafakkur kompetensiyalarining tarkibiy tuzilmasi modellashtiriladi, konstruktivist, faoliyatga yo‘naltirilgan va ijtimoiy-madaniy nazariyalar asosida metodik asoslar mustahkamlanadi.

Ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlari ta’lim mazmuniga faqat “yangi” format qo‘shish emas, balki bilim olish jarayonining ichki mexanikasini o‘zgartirishni anglatadi. Ijodkorlik bu yerda natijaga erishishda yangilik qisminigina emas, balki muammoni qayta qo‘yish, manbalar bilan qayta ishlash va dalillarning o‘zaro bog‘lanishini modellashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kreativlik esa o‘quvchining mavjud bilim me‘yorlarini kengaytirish, ma’no yaratish amaliyotini yaratuvchi shaklda tashkil etish va turli ma’naviy-tarixiy kontekstlarda faol muloqot olib borish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shu bois topshiriqning

“ijodiy”ligi mahsulotning badiiy yoki vizual ko‘rinishi bilan cheklanmaydi; u, avvalo, topshiriq ssenariysidagi izlanish logikasi, tarixiy manbalarga tanqidiy munosabat, kognitiv xatarni qabul qilishga tayyorlik va metakognitiv nazorat mexanizmlari bilan belgilanadi. Bunday topshiriqlar ta’limda vositachi funksiyasini bajaradi: ular nazariy bilim bilan hayotiy va kasbiy ko‘nikmalar o‘rtasida ko‘prik hosil qilib, talabning tarixiy voqelikni konseptuallashtirish amaliyotini jonlantiradi.

Komponentli kompetentlik yondashuvi doirasida ijodiy fikrlash kompetensiyasi va tarixiy tafakkur kompetensiyasini muvofiqlashtirish muhim metodologik qadam hisoblanadi. Ijodiy fikrlashning tarkibiy tuzilmasi motivatsion-qadriyatli sohani, ma’no yaratishga moyillik va ichki qiziqishni; kognitiv-g‘oyaviy qirrani, muammo qo‘yish, assotsiatsiya tuzish va gipoteza qurish tajribasini; strategiya tanlash, evristik usullarni qo‘llash va tajriba qilib ko‘rish madaniyatini; kommunikativ-hamkorlik qirrasini, g‘oyalarni taqdim etish, boshqalar fikrini eshitish va dalillar asosida kelishuvga kela olish qobiliyatini; metakognitiv-refleksiv qirrani, o‘z fikr yuritish jarayonini kuzatish, rejalashtirish va o‘rganishni tartibga solish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Tarixiy tafakkur kompetensiyasi esa manbaga munosabat, kontekstualashtirish, taqqoslash va korroboratsiya, sabab va o‘zgarishni tushunish, tarixiy ahamiyatni baholash, nuqtai nazarlarni qayta tiklash, dalillarga tayangan holda asoslash kabi qirralar orqali namoyon bo‘ladi. Ikki kompetensiya o‘zaro kesishgan nuqtada talabning tahliliy-fantaziya quvvati shakllanadi: u kontekstga uyg‘un holda yangi xulosalar beradi, dalillarning ma’nolarini ochadi va ilmiy tilda ifoda etish mahoratini mukammallashtiradi.

Mazkur ikki kompetensiyani birlashtiruvchi modelda yadro sifatida “tarixiy savol yaratish – dalil to‘plash – ma’no qurish – ijodiy namoyon qilish – refleksiya” davriy halqasini belgilaydi. Bu halqada har bir bosqichda tegishli komponent ustunlik qiladi, ammo ular qat’iy ajralmaydi: savol yaratishda motivatsion-qadriyatli va kognitiv evristik mexanizmlar ishga tushsa, dalil to‘plashda manbaga asoslangan munosabat va kontekst hissi, ma’no hosil qilishda sintez va ssenariy modellashtirish, namoyon qilishda kommunikativ-ritorik mahorat, refleksiyada esa metakognitiv tartibga solish markaziy o‘rinni egallaydi. Ayni paytda, raqamli savodxonlik va axborot madaniyati barcha bosqichlarga singgan holda amal qiladi: ma’lumot izlash, ma’lumotni verifikatsiya qilish, raqamli vizuallashtirish va natijani jamoa bilan muhokama qilish kabi jarayonlar shakllantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Metodologik asoslar jihatidan konstruktivizm bilimni tayyor qolip sifatida emas, balki talabning faol bilim olish amaliyotida shakllanadigan konstruksiya sifatida ko‘radi. Shu bois kreativ topshiriqlar tajriba maydonini yaratadi: talaba mavjud sxemalarni qo‘llabgina qolmay, yangi sxemalarni ishlab chiqadi, xato qilishdan qo‘rqmaslik muhitida o‘z evristiklarini sinab ko‘radi va sharhlash, himoya qilish, bahslashish orqali bilimni mustahkamlaydi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv bu jarayonni maqsad-motiv, vosita, amal, nazorat va natija munosabatlarida izohlaydi; topshiriqlar faqat “vazifa–yechim” formatida emas, balki “Motiv-Muammo-Vosita-Harakat-Nazorat-Natija-Refleksiya” zanjirida tuziladi. Ijtimoiy-madaniy nazariya esa ta’limni ijtimoiy muloqot,

madaniy vositalar bilan to'ldirilgan faoliyat sifatida ko'radi: til, ramzlar, tarixiy hikoyalar va moddiy buyumlar g'oyalar almashishning markaziy qismi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois kreativ topshiriqlarda jamoaviy muhokama, teng fikrlar munozarasi, rolli o'yin va tarixiy simulyatsiyalar kabi elementlar metodik asosning ajralmas qismiga aylanadi.

Topshiriqlarning tuzilishida muammolarga yechim topish tamoyili yetakchi o'rin tutadi: talabaga savolning o'zidagi noaniqlik va ko'pma'nolilik qiymat sifatida taqdim etiladi, bunda aniq javob izlashdan ko'ra dalillar bilan ishlash va xulosalarni oqilona asoslash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Autentiklik tamoyili ta'limni hayotiy va kasbiy kontekstlarga bog'laydi: muzey ekspozitsiyasi uchun tayyorlanayotgan kichik konsepsiya, mahalliy tarixiy manzarani jonlantiruvchi raqamli xarita yoki tarixiy shaxs obrazini qayta talqin qiladigan podkast misolida talabalar real kommunikatsiya auditoriyasini his qiladilar. Skaffolding tamoyili bilan mos tarzda yo'l-yo'riqlar, savollar to'plami, namuna va rubrikalar orqali qiyinchiliklar darajasi bosqichma bosqich boshqariladi; qo'llab-quvvatlash qisqarib borgan sari talabaning mustaqilligi oshadi. Refleksiya tamoyili natijani baholash bilan bir vaqtda jarayonni anglatishni ham o'z ichiga oladi: talabalar o'z qarorlarining mantiqiy zanjirini, dalil tanlash mezonlarini va alternativ yechimlarni yoritishga o'rganadilar.

Metodik tizimni takomillashtirish sharoiti sifatida o'qituvchining metodik refleksiya, manba bazasiga kirish, raqamli muhit imkoniyatlari, o'quv rejasiga integratsiya va akademik madaniyat omillari ko'zda tutiladi. O'qituvchi o'z fani bo'yicha kutilgan natijalarni kompetensiyaviy tilda qayta ifoda etadi, topshiriq ssenariylarini ushbu natijalarga uyg'un holga keltiradi va o'quvchi faoliyatidagi erkinlik darajasini bosqichma-bosqich kengaytiradi. Qayta takrorlash – rejalashtirish, sinov, tahlil va qayta tuzish metodik tizimning doimiy yangilanishini ta'minlaydi. Akademik hamjamiyat bilan hamkorlikda tuzilgan ochiq ma'lumotlar bazalari, namunaviy topshiriqlar va baholash vositalari tajriba almashinuvini yengillashtiradi va sifat mezonlarini yagona tushunchalar holatiga keltiriladi.

Tasnif tizimi amaliyotda barqaror ishlashi uchun ochiq tuzilishga ega bo'lishi kerak. Mazmun, kognitiv murakkablik, autentiklik, tashkil etish shakli, vaqt va resurs hamda manba tabiati kabi o'lchamlar kursning maqsadlariga qarab qayta konfiguratsiya qilinadi. Shu qayta konfiguratsiya qilish jarayonining o'zi ta'lim dizaynining kreativ komponentidir: o'qituvchi hech qachon bir xil qolipga mahkamlanib qolmaydi, balki o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va ikkilamchi maqsadlaridan kelib chiqib yangi kombinatsiyalar yaratadi. Bu arxitekturada qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi axborot tizimlari o'qituvchiga jarayonni tez va asosli boshqarish imkonini beradi. Nazariy xususiyatlarning ushbu majmuasi bizni quyidagi umumiy xulosaga olib keladi: ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini takomillashtirish ta'limni mazmunan boyitishdan tashqari, talabaning tafakkurini kengaytirish, ilmiy fikrlash me'yorlarini shaxsiy malakaga aylantirish va fanga xos yondashuvlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Pedagogik mohiyat topshiriqni vosita sifatida emas, balki bilim konstruktori sifatida ko'rishda, didaktik vazifalar esa motivatsiya, kognitsiya, amaliy faoliyat, kommunikatsiya va refleksiyaning yaxlit tizim sifatida uyushtirishda namoyon bo'ladi. Tasnif tizimi o'qituvchiga tuzilgan

loyihani uzoq muddatli strategiya bilan bog'lash, kompetensiyalarga qaratilgan natijalarni monitoring qilish va yaxshilash sikllarini amalga oshirish imkonini beradi. Komponentli kompetentlik modellashtirishi esa ijodiy fikrlash bilan tarixiy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, bilim olishning haqiqiy mexanikasini ochib beradi. Konstruktivist, faoliyatga yo'naltirilgan va sotsiomadaniy nazariy asoslar esa ushbu modelni amalda joriy etish uchun zarur qoidalar, texnologiyalar va munosabatlar madaniyatini belgilab beradi.

Shu tariqa, bobning nazariy asoslari ta'lim jarayonida kreativ topshiriqlar vositasida tarix fanining mazmunini qayta ifodalash, talabning faol holatida ma'no yaratishni rag'batlantirish va ilmiy odobga tayanadigan muloqot madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada talabalar nafaqat ma'lumotni o'zlashtiradi, balki tarixiy voqelikka oid savol qo'yadi, dalillarni tanlab, ularni mantiqiy zanjirga joylaydi, yangi talqinlar taklif etadi va o'z fikrini mas'uliyat bilan himoya qila oladi. Bunday maqsadli muhitda ijodiy va kreativ topshiriqlar ta'limning drayveriga aylanib, fanning ma'rifiy qudratini jamoat xotirasi, fuqarolik mas'uliyati va madaniy meros bilan bog'laydi. Modelning ochiqligi va qayta tuzish imkoniyati esa uni turli ta'lim kontekstlarida barqaror ravishda ishlatish, lokal ehtiyojlar va resurslar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, raqamli davr qiyofasiga mos ravishda doimiy yangilab borish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tarixiy tafakkurni rivojlantirish uchun kontekstga asoslangan, manbalar bilan ishlashga yo'naltirilgan, ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarni qo'llashning nazariy asoslari va amaliyotlari tahlil qilingan ikkinchi bobi esa **“O'zbekiston tarixi” fanining mazmunini kontekstuallashtirish asosida ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarni loyihalash, tatbiq etish va didaktik ta'minlash texnologiyasi** deb nomlangan.

Hozirgi kompetensiyaviy ta'lim tizimi sharoitida “O'zbekiston tarixi” fanini o'qitish o'quvchilarda tarixiy tafakkurni chuqurlashtirish, manbalarga asoslangan dalillash madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy-madaniy omillarni anglash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi didaktik yechimlarni talab etadi. Shu maqsadda ushbu bobda fan mazmunini kontekstuallashtirishga suyangan holda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarni loyihalash, tatbiq etish hamda didaktik ta'minlash texnologiyasi nazariy jihatdan asoslanadi. Mazkur yondashuv konstruktivizm va ijtimoiy-konstruktivistik modellar, fanlararo bog'lanishlar, shuningdek ta'limda asl manbalar bilan ishlash madaniyatiga tayangan tarixiy xolislik tushunchasi bilan uyg'unlashtiriladi. Bunda ma'rifatparvarlik an'analari, mahalliy tarix maktablari, jadidchilik merosi va mustaqillikdan keyingi tarixiy manzaradan kelib chiqib, o'quvchi tajribasi bilan fan mazmuni o'rtasidagi o'zaro ta'sir samimiy va funksional mazmunda yo'lga qo'yiladi.

Kontekstuallashtirish ta'lim jarayonida mazmun, qobiliyat va muhit o'rtasidagi munosabatni qayta izga soladi. O'quvchi uchun tanish bo'lgan madaniy ishoralari, joy, vaqt va shaxslar to'qnashuvi orqali tarixiy hodisalarning ma'no qatlamlari ochiladi; natijada ma'lum faktlar yonma-yon kelganda ularning semantik aloqadorligi ko'rinadi, qiyosiy tahlil va tarkibiy umumlashmalarga ehtiyoj tug'iladi. Mazmuni shunday kontekstga joylashtirish ta'limdagi

motivlashtirish omillarini kuchaytiradi, chunki topshiriqlar talaba dunyosi bilan uyg'unlik hosil qiladi; ayni paytda kognitiv yukni rejalashtirish prinsiplari saqlanadi: yangi ma'lumot bir shaklda emas, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-tarixiy ramzlar orqali bosqichma-bosqich ochiladi. Shu tarzda "O'zbekiston tarixi"ga oid yirik davrlar yoki aloqador voqealar kichik tarixiy ma'lumot darajasida ko'rinib, umumiy manzaraga qo'shiladi, o'quvchi esa manbani manba sifatida ko'rish, muallif pozitsiyasini farqlash, zamon va makon omillarini hisobga olish kabi tarixiy fikrlash amaliyotlarini o'zlashtira boshlaydi.

Ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini loyihalash nazariy natijadan vazifaga yo'naltirilgan tamoyillarga tayanadi: avval maqsad qilinayotgan kompetensiyalar, dalilga suyangan mulohaza, tarixiy tasavvur va qiymatli munosabat kabi natijalar aniqlanadi; shundan so'ng qabul qilinadigan dalillar va indikatorlar belgilanadi; keyin esa o'quv tajribalari va faoliyatlar belgilanadi. Bu mantiqiy zanjir fan mazmuniga mos autentik manbalarni tanlash bilan uyg'unlashadi. Manbaning aslligi, til xususiyatlari, ijtimoiy vazifasi va janr xususiyatlari bayon etiladi; shunga qarab manbadagi dalil-dalolatlarni izlash, qiyoslash, xulosa qilish uchun kognitiv skaffolding quriladi. Manba tanlashda o'quvchilarning til kompetensiyasi, yosh psixologiyasi va tarjimaviy qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari hisobga olinadi; vizual, matn, xarita, foto-afisha, matbuot parchalari kabi turli formatlar o'zaro moslashtiriladi.

Didaktik dizayn tuzilishi o'z-o'zidan qat'iy qadamlar ro'yxati emas, balki tahlildan amalga, amaldagi tajribadan refleksiya qaratilgan dinamik o'zgarishdir. Jarayonda avvalo o'quv muhiti va o'quvchi ehtiyojlari tahlil qilinadi, o'quvchining tajriba va mahalliy madaniy kapital nozik ravishda baholanadi; shundan keyin fan mazmuniga oid yadroviy g'oyalar aniqlanib, ularni ochib beradigan autentik manbalar bilan didaktik moslashuv amalga oshiriladi. Keyin ijodiy topshiriqning ssenariy logikasi ishlanadi: muammoli vaziyat, rollar va pozitsiyalar, dalillar aylanishi, muloqot qoidalari va refleksiya shakllari anglashilgan holda. Shu bosqichda adaptiv differentsiatsiya uchun savollar matritsasi, tayanchlar iboralar, suratlar, chek-list va qaytma aloqa (feedback) mexanizmlari tayyorlanadi. Diogrammada raqamli arxivlar, GIS (Geographic Information System) va xronologik platformalarining didaktik funksiyasi ko'rsatiladi. Tatbiq etish chog'ida formativ baholash signallari to'planib, jarayonda tezkor qayta sozlash amalga oshiriladi; so'nggi bosqichda natijalar reflektiv tahlil qilinib, keyingi bosqich uchun tuzilish qayta quriladi.

Hujjatlarga tayanib savol berish (DBQ – Document Based Question) "O'zbekiston tarixi"da manbaga tayangan holda fikr yuritishni standartlashtirish bilan birga ijodkorona talqinga keng yo'l ochadi. Bu uchun to'plam sifatida turli janr va holatdagi manbalar, ma'muriy hujjatlar, shaxsiy maktublar, gazetalar, xaritalar va fotosuratlar tanlanganda, manbalar orasidagi o'zaro aloqalar va ziddiyatlar o'quvchi tafakkuri uchun "intellektual qarash" vazifasini bajaradi. Ssenariy markazida tarixiy savol aniq, to'g'ri va dalilga asoslangan shaklda qo'yiladi; o'quvchi savolni qismlarga ajratish, manbani "kim yozdi, qachon, qay maqsadda, qay auditoriya uchun" degan savollar bilan so'roq qiladi, kontekstga joylashtiradi, manba qiymatini baholaydi va qiyoslash orqali asoslaydi. Yozma

ishda tezis, dalil, sharh va xulosa bog‘liqligi, manbaning to‘g‘ri iqtiboslanishi va o‘z so‘zida qayta ifoda etilishi kuzatiladi; tizimli qaytma aloqa orqali mantiqiy uzilishlar yopiladi. Natijani baholashda quyidagi mezonlarga asoslanadi: tarixiy aniqlik, dalilga tayanganlik, manbalarni kontekstualashtirish, muqobil talqinlarga nisbatan sezgirlik va ijodiy yechim yaratish.

Tarixiy munozara shakllari fan mazmunini jonlantiradi, chunki ularda pozitsion fikrlash va dalilning tezkor aylanishi tabiiy muhitda kechadi. Debatga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchi manbalardan kelib chiqib pozitsiya quradi, o‘ziga qarshi dalillarni oldindan taxmin qilib, ularni neytrallash strategiyasini ushlaydi; bu esa fikrlashni kuchaytiradi. Debatda o‘qituvchining didaktik roli moderatorlik bilan cheklanmaydi: u muhokama qoidalarini aniqlash, “adolatli eshitish” madaniyatini shakllantirish, “ta’riflash–misol–qarshi misol–umumlashma” kabi omillarini namoyish etish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Keyingi refleksiya bosqichida o‘quvchilar o‘z nutqini manbalarga ishoralar keltirish, dalil–izoh muvozanati va ishonch ekologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi; debat videoyozuvlari asosida o‘z-o‘zini baholash va juft baholash amalga oshiriladi.

Rolli o‘yinlar “tarixiy empatiya”ni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ssenariy tuzilganda voqea kontekstidagi institutlar, normalar, resurs cheklovlari, manfaat va ishonch tizimlari tipik holat sifatida namoyon etiladi; ishtirokchilar esa real shaxslar yoki tipik rollarni qabul qilgan holda manbalardagi dalillar bilan harakat qiladi. Bunday faoliyatda ijodiy topshiriqlar – memorandum, murojaatnoma, muzokara natijasi, kollektiv qaror loyihasi – real janr talablariga javob berishi kerak; shu sabab janr turlarini, lingvistik qoliplar va tarixiy terminlar semantikasi oldindan ochib beriladi. O‘yindan keyingi “dekonstruksiya” bosqichi eng muhimidir: o‘quvchilar qabul qilgan pozitsiyasi bilan tarixiy reallik o‘rtasidagi farqlar muhokama qilinadi, hozirgi zamon qarashlari bilan zamonga mosligi ajratiladi, etik sezgirlik va manbaga sodiqlik prinsiplari qayta tiklanadi.

Raqamli arxivlardan foydalanish ijodiy topshiriqlarning autentik kontentini boyitadi. Arxiv obyektlari bilan ishlashda ma’nolar teg, katalog tizimi, ma’lumotlarning didaktik funksiyasi ochiladi; o‘quvchi nafaqat manbani o‘qiydi, balki uni topish, chop etilgan joyi va vaziyatini qiyosiy baholash orqali axborot manbalarining ishonchlilik ierarxiyasini anglaydi. Mediasavodxonlik tamoyillari - foto manipulyatsiya ehtimoli, montaj va sarlavha siyosatining ta’siri - ochiq muhokama qilinadi; bu orqali “dalil” bilan “ta’rif” o‘rtasidagi farq seziladi. Raqamli arxivlar ustida ijodiy mahsulot sifatida kuratsiyalangan raqamli ekspozitsiyalar, virtual “kichik muzey”lar, podkastlar va hikoyaviy reportajlar tayyorlanishi mumkin; ularda ssenariy logikasi, auditoriyaga mos nutq uslubi va manbalarga havola etikasi muhim mezon bo‘lib qoladi.

GIS kartografiya o‘quvchilarning geografik tafakkurini uyg‘otadi, chunki tarixiy hodisalarning hududiy tarqalishi va harakat dinamikasi aniq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Davriy xaritalarda iqtisodiy yo‘nalishlar, demografik o‘zgarishlar, madaniy izlar va siyosiy chegaralarning evolyutsiyasi o‘zaro bog‘langanda, sabab-oqibat zanjiri ko‘zga ko‘rinib qoladi. Xarita ustidagi georeferensiyalash va tarixiy kartalarni zamonaviy tasvirlar bilan chog‘ishtirish o‘quvchilarga “makondagi vaqt” tamoyilini his ettiradi; bu esa dalillarning manbai sifatida xaritaning tanish va undan

gipoteza chiqarish madaniyatini shakllantiradi. Geografik axborot tizimlaridan foydalanilgan ijodiy topshiriqlarda “hikoyali xarita” formatlari, holat ssenariylari va mantiqiy qaror qabul qilish simulyatsiyalari orqali fan mazmuni yoritiladi.

Xronologik qaydlar tarixiy vaqtni tuzilishi bilan anglatish imkonini beradi. Voqealar, jarayonlar va shaxslar o‘rtasidagi sinxron va diaxron aloqalarni ko‘rgazmali tarzda joylashtirish orqali o‘quvchi “davrlashtirish”ning shartlilik va nazariyligini anglaydi; shu bilan birga omillar o‘rtasidagi kechikish, tezlanish va uzilishlar “ko‘z bilan ko‘riladi”. Xronologiyadagi ishlarning didaktik qiymati, agar manbalarga havolalar, qiyosiy sharhlar va multi-modal elementlar bilan boyitilsa, yanada oshadi. Ijodiy mahsulot sifatida individual yoki guruhli “vaqt hikoyasi” loyihalari tayyorlanib, ularda vaqt shkalasini tashkil etish mantig‘i, dalillar intervali va “asosiy nuqtalari”ning tegishli asoslanishi talab qilinadi.


Baholash tizimi loyihalashning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Formativ baholash dars ichidagi kichik o‘zgarishlar, ”fikrimni o‘zgartirdim, chunki...” kabi refleksiv ishoralar, tezkor siyosatlar va mashqlar orqali amalga oshiriladi; summativ baholashda esa ijodiy mahsulot, manbalarga tayangan holda esse, debat munozarasi va rolli o‘yin natijalariga oid kompleks rubrikalar ishlatiladi. Rubrikalarda originallik shakldan ko‘ra ma’no bilan o‘lchanadi, ya’ni yangi va qadrli bog‘lanishlar qidiriladi; tarixiy haqiqatga sodiqlik va dalilning to‘g‘ri talqini esa alohida bandida baholanadi. O‘z-o‘zini baholash va juft baholash madaniyati refleksiyani institutsionallashtiradi, o‘quvchi esa o‘zining kognitiv strategiyalarini tilda ifoda etishga o‘rganadi

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi bunday texnologiyani barqaror amalga oshirish sharti sifatida talqin etiladi. Malaka oshirish jarayonlari “ko‘rsatish–uyg‘unlashtirish– mustaqil qilish” qoidasida tashkil etilib, dars videotahlili, manba muhokamasi, dizayn-studiya va o‘zaro mentorlik shakllarida kechadi. Malaka oshirishda tajriba almashish orqali ssenariylar repertuari kengayadi; shu bilan birga lokal kontekstlar – qishloq maktabi, ko‘p tilli sinf, resurs cheklangan sharoit – uchun amaliy moslashtirish usullari ishlab chiqiladi. Natijada texnologiya “bir martalik innovatsiya” emas, balki kasbiy amaliyotga singgan madaniyatga aylanadi. Ijtimoiy-axloqiy o‘lchovlar ham nazardan chetda qolmaydi. Tarixiy hodisalarga munosabatda empatiya va tanqidiy ong o‘rtasidagi muvozanat saqlanadi; bahsli mavzularda nutq madaniyati, hurmat va ommaviy xotiraga ehtiyotkor munosabat tamoyillari mustahkamlanadi. Manbalardagi stereotiplar, qirqib tashlangan hikoyalar va “sukunat zonalari”ni ochish orqali tarixiy adolat hissi va fuqarolik mas’uliyati tarbiyalanadi; bu esa fanni faqat axborot yig‘indisi emas, balki hozirgi zamon faol fuqarosi etib kamol topish makoniga aylantiradi.

Amalga oshirilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotning asosiy nazariy g‘oya va amaliy natijalarini inobatga olgan holda bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlardan foydalanishning quyidagi modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston tarixi” fanining mazmunini kontekstualashtirish asosida kreativ o‘quv topshiriqlarini loyihalash, tatbiq etish va didaktik ta’minlashning nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Autentik manbalarga tayangan topshiriq tuzilishi maqsaddan – vazifaga yo‘nalgan shaklda bo‘lib, o‘quv

yukini to'g'ri taqsimlab, manbalardan foydalanish qoidalariga amal qiladi; DBQ, tarixiy debat va rolli o'yinlar esa dalilga suyangan fikrlash va ijodiy talqin uchun mustahkam maydon yaratadi.



### 1-rasm. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish jarayoni model

Raqamli arxivlar, GIS kartografiya va xronologik platformalar integratsiyasi kognitiv faoliyatni fazoviy va vaqtli o'lchamlar bilan boyitib, o'quvchilarni voqelikni dalillar orqali qayta qurishga undaydi. Adaptiv differentsiatsiya baholash

texnologiyasini barqaror qiladi; natijada fan mazmuni o'quvchi tajribasi bilan chambarchas bog'lanib, tarixiy tafakkur chuqurlashadi, ijodiy mahsulot esa ma'rifat va insoniylik qiymati bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi esa **“Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanishga oid tajriba-sinov ishining samaradorlik ko'rsatkichlari”** deb nomlanib, unda tajriba-sinov ishining mazmuni va tajriba-sinov ishi natijalarini tahliliy baholash natijalari yoritilgan.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotning muhim tarkibiy asoslaridan biri – tajriba-sinov ishi izlanuvchi tomonidan ta'lim jarayoni uchun tavsiya qilinayotgan metodikaning amaliyotga mosligi va samaradorligini aniqlash hamda baholashga imkon beradi. Ushbu tarkibiy elementlar quyidagilardir: tajriba-sinov ishining maqsadi; tajriba-sinov ishining vazifalari; tajriba-sinov ishining muvaffaqiyatini ta'minlovchi ilmiy faraz; kutilayotgan natija; tajriba-sinov ishida qo'llaniladigan ilmiy-pedagogik metodlar, an'anaviy va innovatsion xarakterdagi vosita va zamonaviy texnologiyalar; sinov ishi uchun tavsiya qilingan metodika va uning tavsifi; tajriba maydonlari; tajriba maydonlaridan sinov ishiga jalb qilingan respondent-talabalar ham amaliyotchi-pedagoglar soni; respondent-talabalarning o'quv-bilish faoliyati samaradorligining ta'minlanganini baholovchi mezonlar; tajriba-sinov ishini tashkil qilishdan kutilgan natijaga erishilganlik.

Tajriba-sinov ishining maqsadi – talabalar uchun tarix fanlari bo'yicha ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish metodikasini yaratib, uni sinovdan o'tkazish. Tajriba-sinov ishining vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi: ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlari turkumini shakllantirish uchun tegishli tarix fanini belgilash; “O'zbekiston tarixi” fani bo'yicha ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlari turkumini shakllantirish; “O'zbekiston tarixi” fani bo'yicha shakllantirilgan ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlarining turkumini ekspertizadan o'tkazish; ekspertiza xulosasi asosida talabalar uchun tarix fanlari bo'yicha ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan maqsadli, samarali foydalanish metodikasini yaratish; yaratilgan metodikani OTMda sinovdan o'tkazish orqali uning samaradorligini aniqlash va baholash.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot va uning tarkibiga kiruvchi tajriba-sinov ishi 2023-2025-yillarda uch bosqichda amalga oshirildi. Tajriba maydonlari sifatida Buxoro davlat universiteti, Guliston davlat universiteti va Namangan davlat pedagogika instituti tanlandi va jami 414 nafar respondent jalb qilindi. Tadqiqot jarayonida respondent-talabalarning mashg'ulotlar chog'ida ijodiy, kreativ o'quv topshiriqlarini samarali bajarishga qaratilgan harakatlari baholovchi quyidagi mezonlar ishlab chiqildi: ijodiy, kreativ o'quv topshiriqlarining tavsifi, turlari va didaktik imkoniyatlaridan xabardorlik; har bir ijodiy, kreativ o'quv topshirig'ining mazmunini anglash; ijodiy, kreativ o'quv topshiriqlari bilan ishlash malakasiga egalik; ijodiy, kreativ o'quv topshiriqlarini bajarishga o'ziga xos yechimlarni taqdim etish qobiliyatining rivojlanganligi kuzatildi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarining nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va

malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun matematik statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

Ta'lim jarayonida ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish mexanizmi bo'yicha so'rovnomalar yuzasidan berilgan statistik ma'lumotlarni matematik statistik tahlil qilish uchun umumlashgan tajriba avvalida (T.a.) va tajriba so'ngida (T.s.) javoblari OTMLar kesimida keltirilgan (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish metodikasi bo'yicha tajribadan avvalgi va tajriba so'ngidagi ma'lumotlarning umumiy jadvali

Tajriba - sinov obyektlari	Respondentlar soni	Tajriba guruhleri						Respondentlar soni	Nazorat guruhleri					
		"yuqori"		"o'rta"		"past"			"yuqori"		"o'rta"		"past"	
		T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.		T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.
BuxDU	52	11	27	20	22	21	3	51	11	12	19	18	21	21
GulDU	74	17	38	28	30	29	6	73	15	16	26	24	32	33
NamDPI	81	19	41	31	33	31	7	83	17	18	30	28	36	37
Umumiy	<b>207</b>	<b>47</b>	<b>106</b>	<b>79</b>	<b>85</b>	<b>81</b>	<b>16</b>	<b>207</b>	<b>43</b>	<b>46</b>	<b>75</b>	<b>70</b>	<b>89</b>	<b>91</b>

Yuqoridagi jadvalga asosan, tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhidagi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi.

Tajriba-sinov so'ngidagi natijalar tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi respondentlarning nazorat guruhi respondentlariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. 1-jadvalga asosan bu holatni obyektiv baholash uchun umumlashgan holatda statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi (2-jadvalga qarang).

### 2-jadval

#### Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish metodikasi bo'yicha ko'rsatkichlarning tajriba-sinov so'ngidagi solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba-sinov obyektlari	"yuqori"	"o'rta"	"past"	Jami
		Buxoro davlat universiteti	27	22	3
	Guliston davlat universiteti	38	30	6	74
	Namangan davlat pedagogika instituti	41	33	7	81
	Jami	<b>106</b>	<b>85</b>	<b>16</b>	<b>207</b>
Nazorat guruhi	Tajriba-sinov obyektlari	"yuqori"	"o'rta"	"past"	Jami
		Buxoro davlat universiteti	12	18	21
	Guliston davlat universiteti	16	24	33	73
	Namangan davlat pedagogika instituti	18	28	37	83
	Jami	<b>46</b>	<b>70</b>	<b>91</b>	<b>207</b>


Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi respondentlarda nazorat guruhidagi respondentlarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan (3-jadvalga qarang).

**3-jadval**

**Tajriba-sinov so‘ngidagi natijalarining yakuniy tahlili (son va foizlarda)**

Guruhlar	Respondentlar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	o‘rtacha	past
Tajriba guruhi	207	106	85	16
Nazorat guruhi	207	46	70	91

Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Tajriba-sinov so‘ngidagi natijalar diagrammasi**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Tajriba yakunida statistik ko‘rsatkichlarning o‘rta qiymati, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari quyidagi jadvalda aks ettirildi (4-jadvalga qarang).

**4-jadval**

**Tajriba-sinov natijalarining statistik ko‘rsatkichlari**

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$S_x^2$	$S_y^2$	$C_x$	$C_y$	$T_{x,y}$	$K$	$X_{n,m}^2$	$\Delta_x$	$\Delta_y$
4,43	3,78	0,4051	0,6116	1,004	1,434	9,29	412	77,71	0,09	0,11

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

4-jadvaldan  $\bar{X}=4,43$ ;  $\bar{Y}=3,78$ ;  $\Delta_x = 0,09$ ,  $\Delta_y = 0,11$  ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{4,43 - 0,09}{3,78 + 0,11} = \frac{4,34}{3,89} \approx 1,16 > 1;$$

Bilish darajasini ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (4,43 - 0,09) - (3,78 - 0,11) = 4,34 - 3,67 = 0,67 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi ( $K_{usb}=1,16>1$ ) va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ( $K_{bdb}=0,67>0$ ) ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagilardan yuqori ekan. Demak, ta'lim jarayonida ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish bo'yicha yaratilgan metodikani qo'llash yaxshi natijaga erishilgani tajriba-sinov natijalaridan yaqqol ko'rinib turibdi.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan xulosalar tajriba-sinov ishlari samarador (13,0 %ga) ekanligini va bizning ko'zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko'rsatadi.

## XULOSA

1. Talabalar ta'lim jarayonida ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivizm va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv sinteziga tayangan holda konseptual asosga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv bilimning konstruksiyasi, faol kognitiv ishtirok va refleksiv o'z-o'zini boshqarish orqali yuqori darajadagi tafakkur amallarini faollashtiradi.

2. Ijodiy va kreativ topshiriqlar talabaning muammo qo'yish, dalillash, interpretatsiya va original yechim ishlab chiqish faoliyatini tashkil etuvchi didaktik vosita sifatida talqin qilinadi; ularning asosiy vazifalari motivatsiyalash, mazmunni chuqurlashtirish, transvers kompetensiyalarni rivojlantirish va refleksiyani qo'llab-quvvatlashdir. Tasnif tizimi kognitiv murakkablik, ochiqlik darajasi, hamkorlik shakli, va mahsul turi mezonlari bo'yicha tizimlashtirildi.

3. Ijodiy fikrlash va tarixiy tafakkur kompetensiyalarining tarkibiy tuzilmasi kognitiv, metakognitiv, aksiologik, kommunikativ, va instrumental-raqamli komponentlar orqali modellashtirildi. Har bir komponent uchun indikator-deskriptorlar va rivojlanish darajalari taklif qilindi.

4. Konstruktivist yondashuv faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv va ijtimoiy-madaniy nazariya ijodiy topshiriqlar metodikasining metodologik karkasini shakllantiradi. Bu integratsiya problematizatsiya, kontekstualashtirish, kollaborativ o'qitish va adaptiv qo'llab-quvvatlash didaktik tamoyillarini operatsionallashtirishga imkon beradi.

5. Backward design, modullashtirish va spiral qurilish asosida ijodiy/kreativ topshiriqlarni loyihalash-tatbiq-didaktik ta'minlash jarayoni reglamentlashtirildi: kontekst tanlash vazifa dizayni, o'quv resurslari paketi, hamda baholash tizimi.

6. Arxiv hujjatlari, statistik jadval va xaritalar, foto / ikonografiya, og'zaki tarix va memuarlar bilan ishlash "manba tanqidining tashqi-ichki tahlil algoritmi", TEA ramkasi va komparativ metod bilan uyg'unlashtirildi. Bu yondashuv tarixiy ishonchlilik, daliliy mulohaza va manbalararo bog'liqlik rivojlantirildi.

7. Hujjatlarga tayanib baholash (DBQ-Document-Based Question)da pre-teaching, dalil tanlash–kodlash, tezis–dalil–izoh konstruksiyasi va rubrikalash bosqichlari belgilandi; debatlarida protokollar, dalil etiketi va kounterargument “rebuttal–refutation” sikllari standartlashtirildi; rolli o‘yinlarda ssenariylash, tarixiy empatiya va performativ baholash mezonlari ishlab chiqildi. Adaptiv differensiatsiya UDL (Universal Design for Learning) printsiplari asosida kirish darajasi, yordamchi ishoratlar, vaqt va mahsul formatini moslashtirish orqali ta’minlanadi.

8. Raqamli arxivlar, GIS(Geographic Information System) kartografiya va taymlayn platformalarini integratsiya qilish o‘quvchilarda vaqt–makon tasavvuri, sababiy tarmoqni xaritalash va ma’lumot savodxonligini rivojlantiradi; multimodal mahsulotlar orqali transfer va transdisiplinar kompetensiyalar mustahkamlanadi. O‘quv analitikasi va akademik halollik protokollari bilan birga jarayonning monitoringi, validlik va ishonchlilik ko‘rsatkichlari kafolatlanadi.

#### **Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1) Ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlari to‘plamini shakllantirish. Bunda talabalar tomonidan turli mavzular bo‘yicha muammoli vaziyatlarni yaratish, keystadi, loyiha, taqdimot va didaktik o‘yinlar bo‘yicha ishlanmalarni, shuningdek, tarixiy manbalar bilan ishlash va muzey eksponatlari, arxeologik qazilma namunalari asosida hisobot, taqdimot, kichik ilmiy tezis hamda qisqa metrajli hujjatli film ssenariylarini tayyorlashga e’tibor qaratish lozim.

2) Tarix fanlarini o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish. Bu jarayonda talabalar tomonidan onlayn-muzey, raqamlashtirilgan tarixiy xarita, interfaol tarixiy tushunchalar lug‘ati, muayyan tarixiy davrlar bo‘yicha interfaol tarixiy xronologiya, tarixiy mavzularda video-esse yaratish hamda ta’lim oluvchilarni qizirtirgan tarixiy mavzularda talabalarning ijodiy guruhlarini tomonidan podkastlar uyushtirilishi uchun zarur sharoit yaratish va kerakli resurslar bilan ta’minlash zarur.

3) Talabalarni “tarixiylik va zamonaviylik” tamoyiliga muvofiq milliy va global miqyosda kechayotgan tarixiy o‘zgarishlarni o‘zaro taqqoslash kompetensiyalariga ega bo‘lishlarini ta’minlash. Bu jarayonda turli mintaqalarda ro‘y berayotgan tarixiy voqealar, jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish talab etiladigan o‘quv topshiriqlar ishlab chiqish. Bu jarayonni respublikada faoliyat olib borayotgan ijodkorlik qobiliyatiga ega tarixchi-olimlarni jalb qilgan va ijodiy guruhlarini shakllantirgan holda amalga oshirish mumkin. Ijodiy guruhlarini shakllantirishda unga tarixiy davrlar bo‘yicha mutaxassislarni jalb etish muhim sanaladi.

4) Pedagoglar uchun mashg‘ulotlar jarayonida ijodiy va kreativ o‘quv topshiriqlardan foydalanishga oid ko‘rsatmalar, muhokama savollari hamda baholash mezonlarini yorituvchi metodik tavsiyanomalarni ishlab chiqish. Bunda OTMning pedagoglari ega bo‘lgan ta’lim resurslarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**САТТАРОВ КАМОЛИДДИН ФАЗЛИДДИН УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
ТВОРЧЕСКИХ И КРЕАТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В  
ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ К  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
(на примере предмета «История Узбекистана»)**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (история)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) была зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/Ped6543.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном педагогический институт.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Ученого совета ([www.namspi.uz](http://www.namspi.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Боймирзаев Хуршиджон Каримжонович  
доктор философии по педагогическим наукам, доцент

**Официальные оппоненты:** Эгамбердиева Тургуной Ахмаджановна  
доктор педагогических наук, профессор  
Исокбоев Алишер Ахмаджонович  
кандидат исторических наук, доцент

**Ведущая организация:** Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится « 8 » 11 2025 года в 800 часов на заседании Научного совета PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 при Наманганском государственном педагогическом институте. (Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, д.316. Тел.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного педагогическом институте (зарегистрирована за № 274). Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, д.316. Тел.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69;

Автореферат диссертации разослан « 24 » 10 2025 года.  
(протокол рассылки № 14 от « 24 » 10 2025 года)

  
М.Р. Кодирханов  
Председатель Ученого совета,  
присуждающего ученые степени,  
доктор химических наук (DSc), доцент

С.Х. Муталов  
Ученый секретарь Ученого совета,  
присуждающего ученые степени,  
доктор философии (PhD) по  
педагогическим наукам

М.А. Аскарова  
Председатель научного семинара при  
Ученом совете, доктор педагогических  
наук (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Мировые исследовательские центры и система высшего образования рассматривают цель преподавания наук не только как «запоминание фактов», но, напротив, как формирование у студентов способности нестандартно решать проблемы, создавать новые идеи и оценивать их, то есть развивать креативное мышление, что стало актуальной задачей. В системе оценки PISA 2022 года впервые в истории креативное мышление было выделено в качестве отдельного направления, и результаты показали необходимость целенаправленного методического подхода к развитию данной компетенции во многих системах образования. Подчеркивается, что в процессе обучения высокий результат дают такие педагогические практики, которые связаны с созданием студентами собственных идей, оценкой их уместности и новизны, а также предоставлением времени и условий для совершенствования этих идей. Это, в свою очередь, требует применения в курсе «История Узбекистана» креативных заданий - таких, как анализ источников, исторические дискуссии, ролевые симуляции, социальные проекты - с четко разработанными рубриками оценки.

Один из комитетов ведущих национальных академий наук мира в своем докладе «How People Learn» указывает, что для глубокого понимания образования и его адаптации к различным ситуациям необходимо опираться на реальные виды деятельности науки: постановку вопросов, сбор доказательств, ведение дискуссий и формулирование выводов<sup>1</sup>. В данном источнике особо подчеркивается, что приоритетом в обучении истории должно быть не «запоминание имен, дат, исторических фактов и событий», а работа с доказательствами, проведение исторического анализа, сопоставление, формулирование выводов и развитие культуры дискуссий. Наличие указанных компетенций у современного преподавателя истории свидетельствует о его научном и педагогическом потенциале. Это, в свою очередь, обосновывает образовательную ценность креативных заданий. Иными словами, креативные и творческие задания по истории дают результат без внесения изменений в содержание исторических источников и фактического материала.

Исследования, проведенные в научных учреждениях Узбекистана, показывают, что в подготовке будущего учителя истории решающую роль играет научно-творческая деятельность и методическая подготовка, основанная на современных информационных технологиях. В условиях Нового Узбекистана система образования рассматривает приоритетной задачей подготовку самостоятельного, критически и творчески мыслящего специалиста на основе компетентностного подхода. Это требование, особенно на примере предмета «История Узбекистана», предполагает необходимость системного внедрения в историческое образование новых дидактических подходов, творческих и креативных учебных заданий. Необходимость формирования креативной компетентности преподавателей высшего образования обоснована как

---

<sup>1</sup> John D. Bransford; Ann L. Brown; Rodney R. Cocking (Eds.). How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School (Expanded Edition). Washington, DC: National Academy Press, 2000, 145, 251–252-б.

глобальными тенденциями, так и национальными реформами. В монографических исследованиях подтверждается, что креативная компетенция формируется через демократизацию образовательной среды и усиление «обучения, основанного на творческом подходе».

Данная диссертация в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в таких документах, Указ Президента от 8 октября 2019 года № ПФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования до 2030 года», Указ Президента от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по её эффективной реализации», Указ Президента от 29 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указ Президента от 5 мая 2025 года № ПФ-76 «О дополнительных мерах по обеспечению качества образования и совершенствованию системы оказания образовательных услуг», как Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 февраля 2020 года № ПП-4623 «О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования», а также Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21 февраля 2022 года № 83 «О дополнительных мерах по ускорению реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года».

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I. «Информатизация общества и социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие демократического государства, развитие системы инновационных идей и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** В Республике Узбекистан вопрос эффективного использования творческих и креативных учебных заданий в процессе профессиональной подготовки учителей истории является одним из активно изучаемых направлений современной педагогики. Теоретические и практические основы креативной педагогики освещены в работах М.Усмонбоевой, А.Тураева, М.Л.Болтаевой, М.Т.Джуманиязовой, которые теоретически и практически обосновали, что креативные задания стабильно поддерживают инновационную деятельность преподавателя<sup>2</sup>. Необходимость творческого и креативного подхода в методике преподавания истории подчеркивается в исследованиях таких методистов, как А.Садиев, Г.Фузайлова, М.Хасанова. С точки зрения теории педагогических технологий проектирование творческих заданий, по мнению У.К.Толипова и М.Усмонбоевой, рассматривается как системный подход, включающий последовательность целей, содержания, методов, средств и результатов

---

<sup>2</sup> Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари: ўқув-услугий мажмуа. Тошкент: ТДПУ, 2016. 3–6 – б. Renaissance Education. Болтаева М.Л. Креатив фикрлаш: ўқув-услугий мажмуа. Наманган: НамДУ, 2023. 3–6. Жуманиёзова М.Т. Ўқитувчининг касбий креативлигини такомиллаштириш технологияси: монография. Самарканд: СамДУ, 2023. 3–5-б.

образовательного процесса<sup>3</sup>. В области формирования профессиональной компетентности Н.А.Муслимов, К.М.Абдуллаева, О.А.Кўйсинав, Н.Н.Азизходжаева, Н.Х.Авлиякулов, Н.Н.Мусаева, Д.М.Файзуллаева считают, что гармоничное сочетание педагогической технологии и мастерства является условием обучения, ориентированного на студента и направленного на достижение творческо-практических результатов<sup>4</sup>. Профессор ЖДПУ Р.Б.Ярматов отмечает, что для выпускника бакалавриата по направлению «Историческое образование» определены такие требования, как овладение формами и методами научного познания, развитие навыков использования информационных технологий, а также осознание роли и задач исторической науки в развитии общества<sup>5</sup>.

